

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7.805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 12, Issue 02 (2025)

IMPROVING THE EFFICIENCY OF EARLY DETECTION AND TREATMENT OF SALIVARY GLAND DISEASES

Lutfullayev Doston Rustam ugli

SamDTU Yuz Jag' xirurgiyasi kafedrasi Klinik ordinatori

lutfullayevdoston3@gmail.com

Azamatov Xo'janazar Abdusalom ugli

SamDTU Yuz Jag' xirurgiyasi kafedrasi Klinik ordinatori

azamatovxojanazar2@gmail.com

Kuvandikov Mirsaid Maxsud ugli

SamDTU Yuz Jag' xirurgiyasi kafedrasi Klinik ordinatori

mirsaid.kuvandikov@icloud.com

Abstract: Early detection and improvement of the effectiveness of treatment of salivary gland diseases is one of the most pressing problems of modern medicine. The salivary glands play an important role in the human body, and their diseases can have a significant impact on overall health. In this article, we discuss the incidence of salivary gland diseases in 50 patients of the maxillofacial department of the Samarkand City Medical Association, the importance of early detection and treatment of salivary gland diseases, as well as existing methods and their application.

Keywords: sialadenitis, sialolithiasis, biopsy, ultrasound treatment, magnetic resonance imaging (MRI), parotid salivary gland

SO'LAK BEZI KASALLIKLARNI ERTA ANIQLASH VA DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: So'lak bezi kasalliklarini erta aniqlash va davolash samaradorligini oshirish bugungi kunda tibbiyotda dolzarb masalalardan biridir. So'lak bezlari inson organizmida muhim ro'1 o'ynaydi va ularning kasalliklari umumiy salomatlikka katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada Samarqand shahar tibbiyat birlashmasi yuz jag' bo'limidagi 50ta bemorlarda so'lak bezlari kasalligi uchrash chastotasi, so'lak bezi kasalliklarini erta aniqlash va davolashning ahamiyati, mavjud usullar va ular haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: sialadenit, sialolitiaz, Biopsiya, Ultrasonik davolash, magnit-rezonans tomografiya (MRT), Qulq oldi so'lak bezi

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ СЛЮННЫХ ЖЕЛЕЗА

Аннотация: Раннее выявление и повышение эффективности лечения заболеваний слюнных желез является одной из наиболее актуальных проблем современной медицины. Слюнные железы играют важную роль в организме человека, и их заболевания могут оказывать существенное влияние на общее состояние здоровья. В данной статье мы обсуждаем частоту заболеваний слюнных желез у 50 пациентов челюстно-лицевого отделения Самаркандского городского медицинского объединения, важность раннего выявления и лечения заболеваний слюнных желез, а также имеющиеся методы и их применение.

Ключевые слова: сиалоаденит, сиалолитиаз, биопсия, ультразвуковое лечение, магнитно-резонансная томография (МРТ), околоушная слюнная железа.

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7.805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 12, Issue 02 (2025)

Kirish. So'lak bezlari og'iz bo'shlig'ida joylashgan bo'lib, so'lak ishlab chiqarish orqali hazm jarayonini yengillashtiradi. So'lak bezlari uchta asosiy turi mavjud: qulogoldi bezlari, pastki jag' bezlari va til osti bezlari. Ushbu bezlarning kasalliklari, jumladan, yallig'lanish (sialadenit), toshlar (sialolitiaz), o'sma va boshqa patologiyalar, ahamiyatga ega. T.Warton (1656 y) jag' osti, N.Stenon (1662 y) qulog oldi so'lak bezlarining anatomiyasi xaqida chop etgan ishlaridan so'ng bu a'zolar kasalliklari o'rganila boshlandi. Odamda uch juft katta so'lak bezlari: qulog oldi (glandula parotis), pastki jag' osti (glandula submandibularis), til osti (glandula sublingualis) va (lablar, lunj, tanglay, til, milk) shilliq pardasida mayda so'lak bezlari mavjud. Funksional jixatdan, mayda bezlar katta ahamiyatga ega bo'lmasalar ham, ularda har xil patologik o'zgarishlar yuzaga kelib, bolani bezovta qilishi mumkin. Qulog oldi so'lak bezi va boshqa katta so'lak bezlari embrional rivojlanishning 6-xaftasida paydo bo'ladi, rivojlanishning 22-xaftasida so'lak naylari o'tuvchan bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda so'lak bezlari faoliyati sust bo'lsa, bir yoshdan so'ng ularning faolligi ortadi va 15 yoshlarga qelib, bez shakli, hajmi va funksional jixatdan kattalarnikidan farq qilmaydi. Tug'ilgan bola 258 da bez vazni 1,8 g. bo'ladi. Bola o'sa borgan sari bu bezlar proporsional ravishda kattalashadi. Balog'atga yetgan bolada bez vazni 25-30 g. ga yetadi. Qulog oldi bezi asosan jag' orti sohasini egallaydi. YAssi shaklga ega bo'lib, yuz terisi ostida, old tomondan qisman chaynov mushagi (m.masseter) to'sib turadi, orqa tomondan - to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon (m.sternocleiomastoideus) muskul va qisman so'rg'ichsimon o'siqqa yotadi. Adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, bez uzunligi 48-86 mm, eni 42-74mm, qalinligi 22-45 mm gacha yetadi. Qulog oldi so'lak bezida tashqi, old va orqa yuzalari, yuqori va pastki qutblari farqlanadi. Bez yumshoq, pushti rangda bo'lib, alohida bo'laklardan iborat. Medial qismdan qo'shimcha bo'laklar tarmoqlanadi. Bezzning birlamchi bo'lakchalar qo'shilib, bo'laklar hosil qiladi. Bo'laklarni biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lgan stroma o'zaro ajratib turadi. Stroma orasida qon tomirlari, nerv tolalari va so'lak chiqaruv yo'llari joylashadi. Bez bo'lakchalarining naychalari qo'shilib, markaziy nayni (5-7 sm. uzunlikda) hosil qiladi. Markaziy nay (ductus parotideus Stenoni) bezning old qirrasidan chiqib, gorizontal holatda yotadi. Chaynov mushagi oldidan o'tib, lunj mushagi orasidan og'iz bo'shlig'iga, ya'ni birinchi oziq tishlar qarshisida shilliq pardaga ochiladi. Qulog oldi so'lak bezining chiqaruv nayiga 7-18 tagacha yon naychalari kelib qo'shiladi. Magistral nayning ichki diametri 1,5-mm, uzunligi 15-40 mm ni tashkil qiladi. Qulog oldi so'lak bezi orasidan yuz nervi (n.facialis) tolalari o'tadi. Nerv chakka suyagining so'rg'ichsimon va bigizsimon o'siqlari o'rtasidagi teshik (foramen stylomastoideum) dan chiqib, qulog oldi so'lak bezining orqa qirrasidan bez to'qimasiga kiradi, yuqorida pastga, ichqaridan tashqariga va oldinga yo'naladi. Bez to'qimasi ichidan o'tgan yuz nervi yaxlit tola bo'lib, 0,6-1,5sm gacha uzunlikda tashqi uyqu arteriyasi va jag' orti venasi yonidan o'tadi, so'ng 0,5-1sm chuqurlikda ikkiga bo'linadi, va ularning biri nervning davomi sifatida gorizontal, ikkinchisi pastga 2 sm. gacha tushib, bezdan chiqish oldidan tarmoqlanib ketadi. Yuz nervining tarmoqlari bez ichida chigal (plexus parotideus) yoki katta g'oz panjasasi- pes anserinus major hosil qiladi. Chigaldan ajralgan tolalar yelpigichsimon shaklda oldinga - tashqariga yo'naladi. Bez yuzasida yuz nervi mimika mushaklari: chakka (rr. temporalis), yonoq (rr.zygomatici), lunj (rr.buccalis) pastki jag' osti (r.marginalis mandibulae) bo'yin (g. coli) tarmoqlarini beradi. Tashqi uyqu arteriyasi (bez ostida, qulog oldi bezi fassiyasi yuzasi) qulog oldi so'lak bezi parenximasining medial qismidan jag' shoxi orqa qirrasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi, undan old tomonga yo'nalgan yuqori jag' arteriasi (a.maxillaris) ajraladi, orqaga - qulog orti arteriyasi (a.auricularis posterior) yuqoriga esa - tashqi uyqu arteriyasi oxirgi tarmogi chakkaning yuza arteriyasi (a.temporalis superficialis) teri ostida joylashadi, undan ajralgan mayda tomirlar bezni arterial qon bilan ta'minlaydi. Bezdan ketayotgan qon yuza va o'rta chakka venalari vv.temporalis superficialis, temporalis media, yuz kundalang venasi (v.transversa faciei) va yuqori jag' venasi (v.maxillaris) vositasida, tashqi uyqu arteriyasiga parallel joylashgan jag' orti venasi (v.retromandibularis) ga quyiladi. Qulog oldi so'lak bezining innervasiyasi: qulog-chakka nervi

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7.805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 12, Issue 02 (2025)

n.auriculotemporalis bilan ta'minlanadi. Bu nerv pastki jag' nervi (n.mandibularis) dan ajralib ikkiga bo'linadi (yoqi avvaldanoq ikki tarmoq holda ajraladi) va a. Meningea media ni o'rab olgach, qaytadan birlashib, bitta poyaga aylanadi, so'ngra pastki jag' bo'g'im o'sig'ini orqasidan aylanib o'tib, quloq oldi beziga ko'tariladi. Shu joyda u bezning o'ziga hamda bez ichidan o'tayotgan yuz nerviga aloqa (anastamoz) tolalarini beradi.

So'lak bezi kasalliklarini erta aniqlashning ahamiyati. So'lak bezi kasalliklarini erta aniqlash turli sabablarga ko'ra muhimdir. Birinchidan, erta aniqlash kasalliklarning og'ir asoratlaridan qochish imkonini beradi. Ikkinchidan, erta bosqichda davolash muvaffaqiyat darajasi yuqori bo'lib, bemorning hayot sifati yaxshilanadi. Shu sababli, diagnostika usullarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda biz Samarcand shahar tibbiyot birlashmasiga yuz-jag' jarroqligi bulimida so'lak bezi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni kuzatdik. Bu 50ta so'lak bezi kasalliklari bilan kasallangan bemorlardan 20tasi(40%) quloq oldi so'lak bezi kasalligi bilan, 16tasi (32%) jag'osti va tilosti so'lak bezlari kasalligi bilan, 10tasi(20%) so'lak bezi tosh kasalliklari bilan, boshqa kasalliklar 4ta (8%) ni tashkil qildi. Kuzatuvimiz orqali so'lak bezi kasalliklarini o'z vaqtida davolash va erta oldini olishga ahamiyat berishimiz lozimligini ko'rsatdi. So'lak bezi kasalliklarini aniqlashda bir qator usullar mavjud:

1. Klinik tekshiruv: Shifokor tomonidan o'tkaziladigan umumiy tekshiruv, og'iz bo'shlig'i va bo'yin sohasini ko'zdan kechirish.

2. Tasniflash radiologiyasi: Kompyuter tomografiysi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va ultratovush (UTT) kabi texnologiyalar yordamida so'lak bezlari tasvirini olish.

3. Biopsiya: O'sma yoki nodda hujayralar namunalarini olish va laboratoriya tekshiruvi.

Davolash usullari. So'lak bezi kasalliklarini davolashda turli usullar qo'llaniladi:

1. Dori vositalari: Yallig'lanishga qarshi dorilar, antibiotiklar va og'riq qoldiruvchi vositalar.

2. Fizioterapiya: Ultrasonik davolash, lazer terapiyasi va massaj yordamida so'lak ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

3. Jarrohlik aralashuv: Toshlarni olib tashlash, bezlarni eksizyon qilish yoki o'smalarni chiqarish operatsiyalari.

Yangi tibbiyot texnologiyalari va ilmiy tadqiqotlar sohasida so'lak bezi kasalliklarini erta aniqlash va davolashda yangi usullar kashf etilmoqda. Genetik tadqiqotlar, biomarkerlar orqali diagnostika va minimally invaziv jarrohlik usullari samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

Xulosa: So'lak bezi kasalliklarini erta aniqlash va samarali davolash bemorlarning salomatligini saqlash va hayot sifatini yaxshilash uchun muhimdir. Yangi diagnostika va davolash usullari sohasidagi yutuqlar tibbiyotning bu sohasida katta istiqbollarga olib chiqadi. Shu sababli, so'lak bezlari kasalliklarini o'rganish va davolashga katta e'tibor qaratish zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. М.И.Азимов. БОЛАЛАР ЖАРРОХЛИК СТОМАТОЛОГИЯСИ. Тиббиёт олий ўқув юртлари учун дарслик. Тошкент-2013.-256 б

2. Жилонов А.А. (Jilonov A.A.) Юз-жаг жаррохлиги: дарслик/ А.А. Жилонов, Б.Т. Нармаҳматов.- Тошкент, 2022.- 292 б.

3. Т.Г Робустовой. Хирургическая стоматология. Москва «Медицина». 2000г.

4. Бернадский Ю.И. Основы хирургической стоматологии Витебск. 2006 г.

5. Базикъян Э.А «стоматологический инструментарий». Цветной атлас, -М: ГЕОТАР – Медиа, 2007,-168 с.

6. Балин В.Н. Клиническая оперативная челюстно-лицевая хирургия. Санкт- Петербург 1999. 2-том.

**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR
RESEARCH & DEVELOPMENT**

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 12, Issue 02 (2025)

7. Брагин Е.А.и др. Ортопедическое лечение челюстно-лицевых больных, пациентов с патологией ВНЧС, частичной и полной потери зубов с применением имплантатов. Учебно-методическое пособие. Ставрополь.: СтГМА, 2008. – 82с.
- 8.ВИЧ –инфекция в лечебной и стоматологической практике. Методическое пособие для врачей терапевтов, хирургов, педиатров и стоматологов. – Ставрополь, 2006. – 80с.
- 9.Караков Т.Г Лекарственные средства в пародонтологии. Методы лечения: учебное пособие/. И др. – ростов н/Д.: Феникс, 2007. – 144с.
- 10.Соловьев М.М.Абцессы и флегмона челюстно лицевой области. Санкт-Петербург, 1999
- 11.Тимофеев А.А. руководство по челюстно-лицевой хирургии хирургической стоматологии. 1,2,3 том. Киев. 2000 г.
- 12 .Трезубов В.Н ортопедическая стоматология: Прикладное материаловедение, Учебник для студентов/ ., -М: МЕД пресс-информ, 2008.-384с.
- 13.Трезубов В.В .и др Ортопедическая стоматология.пропедевтика и основы частного курса: учебник/.-М.:МЕД пресс-информ, 2008. -416с.
- 14Хатыпова М.Г. особенности лечения одонтогенных гайморитов, вызванных аноэробной инфекцией. Методические рекомендации.ташкент. 2005г.